

5-6-7-SINFLARDA PUNKTUATSION SAVODXONLIKNI OSHIRISH YO'LLARI

Abdullayeva Xurshida Abdurazzoq qizi

Namangan davlat pedagogika institute 2-kurs magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqola punktuatsion savodxonlikning til ta'limidagi o'rni va ahamiyati mavzusiga qaratilgan bo'lib, 5-6-7-sinflarda punktuatsion savodxonlik qay darajada ekanligi tahlil qilinib, tadqiq etilgan ilmiy izlanishlar asosida, o'quvchilarga tinish belgilarini oson, tushunarli o'rgatishdagi muhim tavsiyalar va ularni to'g'ri qo'llash haqida ko'nikmalar berib o'tiladi.*

Kalit so'zlar: *puntuatsiya, ko'chirma gap, muallif gap, undalma, til o'qitish, matn,*

**СПОСОБЫ ПОВЫШЕНИЯ УРОВНЯ ПУНКТУАЦИОННОЙ ГРАМОТНОСТИ В
5-6-7 КЛАССАХ**

Аннотация: *Данная статья посвящена роли и важности пунктуационной грамотности в языковом образовании. В ней анализируется уровень пунктуационной грамотности в 5-6-7 классах, и на основе проведенного исследования предлагаются важные рекомендации по обучению учащихся знакам препинания в доступной и понятной форме, а также по формированию навыков их правильного использования.*

Ключевые слова: *пунктуация, отрывок, речь автора, подсказка, языковое обучение, текст.*

WAYS TO IMPROVE PUNCTUATION LITERACY IN GRADES 5-6-7

Abstract: *This article focuses on the role and importance of punctuation literacy in language education. It analyzes the level of punctuation literacy in grades 5-6-7, and based on the research, it provides important recommendations for teaching students punctuation marks in an easy and understandable way and provides skills for their correct use.*

Keywords: *punctuation, excerpt, author's speech, prompt, language teaching, text*

Yozuv madaniyatini shakllantirish va takomillashtirishda punktuatsiyaning - tinish belgilarining alohida ahamiyati bor. Tinish belgilari yozuvning boshqa vositalari (harflar, raqamlar, diakritik belgilar) hamda til birliklari (so'zlar, morfemalar) bilan ko'rsatish mumkin bo'lmagan turlicha fikriy munosabatlarni, psixologik va intonatsion holatlarni ifodalashda ham favqulodda muhim ahamiyatga ega. Puntuatsiya tilning sintaktik qurilishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, yozma nutqni to'g'ri, ifodali, aniq bayon qilishda, uning uslubiy ravonligini, tez tushunilishini ta'minlashda benihoya zaruriy vositadir [1].

Til ta'limida punktuatsiya, o'zbek yoki chet tillarini o'rgatish jarayonida kichik yoshdagi o'quvchilardan boshlab to universitet talabalarigacha o'qitib kelinmoqda.

Jumladan, 5-6-7-sinflarda tinish belgilari ona tili darsliklari asosida o'rgatiladi.

5-sinfda punktuatsion savodxonlikni:

- gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turlari bilan bog'lash orqali (Darak gaplar xabar ma'nosini bildiradi. Bunday gaplar oxiriga yozuvda nuqta qo'yiladi. Masalan: Vatan ostonadan boshlanadi. Darak gap his-hayajon bilan aytilsa, gap oxiriga undov belgisi qo'yiladi. Masalan: Vatanimga xizmat qilaman! [2]);

- berilgan matnga kerakli tinish belgilarini qo'yish mashqlari orqali (Tushirib qoldirilgan tinish belgilarini qo'yib, xatolarni to'g'rilab, matnni ko'chiring. Men samarqand yaqinidagi qishloqlardan biri - chordarada tug'ilganman hali bu qishloq paydo bo'lmasdan oldin bu yerda onam - fuzallobegimning bobolari hikmatxo'ja maxdum qo'rg'on tiklagan qo'rg'onning atrofini mevazor-u uzumzorlar o'rab turgan qo'rg'onning to'rt tomonida darvozalari bo'lgan, shu sababdan bu joyni odamlar "chordara" ("to'rt eshikli", "to'rt darvozali") deb atay boshlagan vaqt o'tib qo'rg'on atrofida paydo bo'lgan qishloq ham chordara nomini olgan);

- ko'chirma gaplarda qo'llanishi orqali (Ko'chirma gap o'zgalarning aynan keltirilgan gapidir. Bunday gaplar muallif gapi bilan birga qo'llanadi va qo'shtirnoq ichida yoziladi. Masalan: "Kitob - beminnat ustoz. Hardaqiqa u bizni donishmandlarning bilim xazinasi bilan oshno eta oladi", - deb yozgan edi Alisher Navoiy. Ko'chirma gaplar dialog shaklida berilsa, qo'shtirnoqqa olinmaydi va oldidan tire qo'yiladi: - Sizga qanday kitob kerak edi?- Fantastik hikoya o'qimoqchi edim. Qaysi asarni tavsiya qila olasiz? [3]) o'qitiladi.

6-sinfda tinish belgilari haqida:

- ma'lum bir qoidalar asosida (Gap mazmunan tugallanmay qolganda ko'pnuqtadan foydalaniladi. Bundan tashqari so'zlovchining cheksiz his-hayajoni ifodalanganda, matnda ayrim qismlar olib tashlanganda hamda dialoglarda suhbatdoshning gapi javobsiz qolganda ham ko'pnuqta qo'yiladi.);

- undalma so'zlar bilan kelishi asosida (Undalma gap boshida kelsa, undalmadan keyin; o'rtasida kelsa, ikki yonidan; oxirida kelsa, undan oldin vergul qo'yiladi. O'sha kuni, qizim, sendan hech kim ranjimagan edi.);

- ko'chirma va muallif gaplarida qo'llanishi asosida (Ba'zan nutqimizda boshqalarning gapini aynan keltiramiz. Birovning aynan keltirilgan gapi ko'chirma gap, o'zimiz aytgan (so'zlovchining gapi) esa muallif gapi deyiladi. Muallif gapi (M yoki m) va ko'chirma gap (K yoki k) bir-biriga nisbatan turlicha joylashishi mumkin, bunda tinish belgilari quyidagicha ishlatiladi: 1) M: "K". M: "K?" M: "K?" — m. "K?" — m. 4) "K, — m, — k". "K. — m. — K" M: "K!" M: "K!" — m. "K!" — m. [4]) bilim beriladi.

7-sinf darsligida esa murakkab tinish belgilari bilan tanishtirish va amalga tatbiq qilish tushuntiriladi. (1. His-hayajon bilan aytilgan so'roq gaplar oxirida so'roq va undov belgisi ketma-ket qo'yiladi. Axir bu yerlar muqaddas ziyoratgoh hisoblanadi, nahot shunday joyda ham o'z yomon ligingni qo'ymasang?! 2. So'roq va undov gaplar

kuchli his-hayajon bilan aytilsa, ketma-ket ikkita bir xil yoki uchta bir xil belgi qo'yilishi mumkin. Diqqat, diqqat!!! Poyezd harakatlanishga hozirlanmoqda. Barcha yo'lovchilardan o'z joy larini egallashlarini so'raymiz. 3. So'roq va undov mazmunini bildirgan gaplarda fikr tugallanmay qolsa, mazkur bel gilardan so'ng ko'p nuqta qo'yiladi. "Poyezd ertaga qoldirilgan bo'lsa, endi nima bo'ladi?.. Axir bugun qanday bo'lmasin yetib borishim kerak", – deya bo'shshib joyiga o'tirib qoldi Nozima. 4. Muallif gapi va ko'chirma gap o'rtasida tinish belgilari ketma-ket ishlatilishi mumkin. "Bugungi reys bilan Toshkentga yetib boraman, bezovta bo'lmang", – dedi boshlig'imiz. Tire so'zlar orasida kelganda "undan bungacha", "u bunga qarshi" kabi ma'nolar uchun xizmat qiladi. Toshkent – Andijon shaklida Toshkentdan Andijongacha bo'lgan yo'nalish tushuniladi. "Navbahor" – "Nasaf" shaklida esa "Navbahor" va "Nasaf" jamoalari qarama-qarshiligi haqida gap bormoqda. Yuqoridagi holatlarda tire har ikki tomondan bo'sh joy bilan ajratib yoziladi. Reja, qaror, farmon, buyruq, qonun kabi rasmiy hujjatlardagi tasniflovchi xatboshilarda bandlar oxirida nuqtali vergul qo'llanadi. Oxirgi bandda esa nuqta qo'yiladi. [5])

O'ylaymizki, o'quvchilarda punktuatsion savodxonlikni oshirish uchun yangi tinish belgilarni yaratish, yangi qoidalar kiritish, yangi darsliklar ishlab chiqish kerak emas! Shunchaki bolaga majburlashlarsiz, erkin holatda, tinish belgilarini o'rganish nima uchun kerakligini tushuntirishimiz, zamonaviy texnologiyalardan foydalanishimiz, har xil metodlar orqali mavzuga qiziqtirishimiz va o'rganilgan bilimlarni amalda qo'llashni so'rashimiz zarur!

5-sinf o'quvchilari kichik yoshdagi bolalar bo'lgani uchun ularga qiziqarli o'yinlar orqali tinish belgilarini o'rgatish maqsadga muvofiq bo'ladi. (Masalan, punktuatsion belgilarni o'z tillarida nomlash: ?- so'ra, !- portla, -to'xta, ()-qo'lga ol va hkz)

6-sinfda esa, ular punktuatsiya haqida xabardor bo'lishadi. Shuning uchun, o'qituvchi tomonidan tayyorlangan hech qanday tinish belgilersiz turli matnlarga olgan bilimlari asosida tinish belgilarini mustaqil qo'yib chiqishlari va nima uchunligini tushuntirib berishlari, o'zlariga tanish she'r yoki qo'shiqlarni yozib, unda qanday belgilardan foydalanilgan va nima uchun degan savollarga javob berishlari, sinfdoshlari yechishi uchun turli topshiriq va jumboqlar tuzishlari o'tilgan darsni yanada mustahkamlaydi.

13 yoshli bolalar uchun murakkab tinish belgilaridan foydalanish odatiy holga aylanishi kerak. Buning uchun o'qiyotgan badiiy kitoblarini doimiy tahlil qilib borishlari, ushbu belgilar nega, nima maqsadda va qay holatda qo'llanayotganini e'tiborga olishlari zarur. Odatda, o'quvchilar xatolar topishni yaxshi ko'rishadi, guruh shaklida yoki partadoshlar shaklida, almashib bajarilgan vazifalarni tekshirish va noto'g'ri ekanligini isbotlash ham juda qo'l keladi.

Kelajakda punktuatsion savodxonlikni oshirish yo'llari ustida yanada ko'proq ishlab, turli metodlar ishlab chiqish, kreativ va qiziqarli dars ishlanmalarini yaratish, va umumiy punktuatsion qoidalarni yanada chuqurroq o'rganish va o'qitish til ta'limkda muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbek tili me'yorlari (punktuatsiya). - Toshkent: Zamin nashr, 2021.-232 b.
2. Ona tili 5-sinf (1-qism) [Matn]: darslik / K.M. Mavlonova, N.S. Hakimova, M.R. Siddiqov, S.H. Qo'ldosheva; muharrir O.T. Madvaliyev. - Toshkent: Novda Edutainment, 2024. - 144 b.
3. Mavlonova K. M. Ona till. 5-sinf (II qism): darslik / K. M. Mavlonova, S. H. Qo'ldosheva, N. S. Hakimova, M. R. Siddiqov. -Toshkent: "Novda Edutainment", 2024. - 160 b.
4. Ona tili [Matn] : 6-sinf uchun darslik / K.M. Mavlonova [va boshq.].-Toshkent : Respublika ta'lim markazi, 2022.-224 b,
5. Ona tili 7 [Matn]: 7-sinf uchun darslik / K. M. Mavlonova. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. –224 b.
6. Crystal, D. (2018). Making a Point: The Persnickety Story of English Punctuation. London: Profile Books.
7. Baranov, M.T. & Ladijenskaya, T.A. (2017). Metodika prepodavaniya russkogo yazyka v shkole. Moskva: Prosveshenie.
8. Ivanova, V.F. & Shapiro, A.B. (2016). Puntuatsiya v russkom yazyke. Sankt-Peterburg: Azbuka-klassika
9. Teaching Grammar Basics: Understanding Punctuation [Elektron manba] // Bedrock Learning. – 2022. – URL: <https://bedrocklearning.org/literacy-blogs/teaching-grammarbasics-understanding-punctuation/>
10. <https://www.twinkl.com/homework-help/english-homework-help/years-5-and-6-punctuation/years-5-and-6-punctuation-activities>